

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhammadov, B.Q.Qurbanova

Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....7

I.Tuychiyeva, Z.Axunova

Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....10

D.R.Yuldasheva

Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....14

A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova

Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati20

I.I.Soliyev

Oliy ta'lif muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari26

Sh.D.Xonbabayev

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari31

M.S.Xoshimov

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....36

L.Z.Xolmurodov

Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....41

A.Sh.Bazarbayeva

Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....45

N.Sh.Abdiyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi54

F.A.Boltayeva

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida kuest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va refleksiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....59

M.E.Maziyayeva

Maktabgacha ta'lifmda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish63

D.D.Boymirzayeva

Oliy ta'lif muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari67

M.O.Ismailova

Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur71

G.O.Shaxbazova

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni75

M.F.Bekchonova

Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatları79

X.A.Ibragimov

Ta'lif muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari83

A.T.Nazarov

Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish88

D.M.Xusanov

O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati92

Y.Y.Turakulov

Ta'lifda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....96

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatları.....102



УО'К: 378

**BO'LAJAK VOKAL O'QITUVCHILARI KASBIY FAOLIYATI SAMARADORLIGINI
OSHIRISHGA QARATILGAN OMILLAR**

**ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТРУДОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
БУДУЩИХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВОКАЛА**

**FACTORS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF THE LABOR ACTIVITY OF FUTURE
VOCAL TEACHERS**

Yuldasheva Diyora Raxmatjonovna

O'zbekiston san'at va madaniyat instituti vokal kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbekistonda bo'lajak akademik vokal o'qituvchilariga munosabat alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yuqori baholanadi. Akademik vokal o'qituvchisi nafaqat musiqi bilimlarni ommalashtiruvchi, balki jamiyatning umumiyligi rivojlanishiga, ma'naviy va madaniy boyishiga katta hissa qo'shuvchi shaxslardir. Ularning faoliyati jamiyatning ma'naviy muhitini shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga yordam beradi. Mazkur maqolada bo'lajak vokal o'qituvchilarining kelajak kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishda muhim sanalgan professional omillar muhokama qilinadi.

Аннотация

Особое значение в Узбекистане имеет отношение к будущим преподавателям академического вокала, высоко оценивается их роль в развитии общества. Педагоги по академическому вокалу-это люди, которые не только популяризируют музыкальные знания, но и вносят большой вклад в общее развитие, духовное и культурное обогащение общества. Их деятельность способствует формированию духовной атмосферы общества и его устойчивому развитию. В данной статье будут рассмотрены профессиональные факторы, которые считаются важными для повышения эффективности будущей профессиональной деятельности будущих педагогов по вокалу.

Abstract

In Uzbekistan, the attitude towards future academic vocal teachers is of particular importance, and their role in the development of society is highly valued. Academic vocal teachers are people who not only popularize musical knowledge, but also make a great contribution to the overall development, spiritual and cultural enrichment of society. Their activities contribute to the formation of the spiritual environment of society and its sustainable development. This article discusses professional factors that are considered important for improving the activities of future vocal teachers.

Kalit so'zlar: bo'lajak akademik vokal o'qituvchisi, ma'naviy muhit, ijodiy qobiliyatlar, madaniy meros, sahna madaniyati, ovoz imkoniyatlari, metos, xalq musiqiy namunalar

Ключевые слова: будущий педагог вокала, духовная среда, творческие способности, культурное наследие, сценическая культура, голосовые возможности, методы, образцы народной музыки

Key words: : future vocal teacher, spiritual environment, creative abilities, cultural heritage, stage culture, voice capabilities, methods, samples of folk music

KIRISH

O'zbekiston jamiyati rivojida akademik vokal o'qituvchilari muhim o'rinni tutadi va ularning hissasi yuksak baholanadi. Ular nafaqat madaniy va ma'naviy merosni saqlab qolish, balki kelgusi avlodlarga o'rgatish va jamiyatning ma'naviy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadilar. Ularning ta'lim-tarbiyasi, savodi borasida so'z borganda, unga avvalo xalq namunasi, madaniy meros namoyondasi, kelajakdagi butun millat uchun namuna bo'la olishi kerak bo'lgan etollen ko'z o'ngimizda gavdalaniishi tabiiydir[1]. Bu kabi yuqori buyurtma va talablarni yuksak darajada uddalash uchun bo'lajak akademik vokal o'qituvchisi ta'limiga katta mas'uliyat yuklanadi.

O'zbekistonda bo'lajak akademik vokal o'qituvchilariga munosabat alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yuqori baholanadi. Quyida bu munosabatning ba'zi jihatlari va sabablarini keltirib o'tamiz:

PEDAGOGIKA

O'zbekistonda milliy musiqa, ayniqsa, maqom va xalq qo'shiqlari alohida ahamiyatga ega. Akademik vokal o'qituvchilari ushbu musiqiy merosni saqlab qolish va avlodlarga o'rgatishda muhim rol o'ynaydilar. Xalqona san'atni saqlash va rivojlantirish orqali o'qituvchilar milliy g'urur va an'analarni qo'llab-quvvatlaydilar. Musiqiy ta'lif orqali jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga hissa qo'shish. Akademik vokal o'qituvchilari o'z shogirdlariga nafaqat vokal texnikasini, balki estetik va etik qadriyatlarni ham o'rgatadilar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach madaniy-ma'naviy merosni avaylab-asrash, uni kelajak avlodga bezavol yetkazish, shu bilan birga jahon musiqa madaniyatining yuksak namunalarini mamlakatimiz madaniy hayotiga integratsiya qilish harakatlari ijodkorlikka siyosat darajasida katta e'tibor berilayotganidan dalolat beradi. Vokal o'qituvchilari yordamida yoshlar o'z ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. Xor va vokal ansamblari orqali o'quvchilarda jamoaviyilik hissini shakllantirish. Bu turdag'i tadbirlar milliy bayramlar va madaniy marosimlarda muhim rol o'ynaydi. Milliy musiqiy asarlarni ijoq qilish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini oshirish. Musiqa maktablari va jiliy ta'lif muassasalarini faoliyatida akademik vokal o'qituvchilari yordamida yuqori malakali bo'lajak soha mutaxassislari tayyorlanadi.

Akademik vokal o'qituvchilari talabalarni turli musiqiy tanlovlari va festivallarga tayyorlash orqali ularning professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydilar[2].

Hukumatimiz tomonidan madaniyat va san'at rivojiga alohida e'tibor qaratilib kelinayotgani xech kimga sir emas. Akademik vokal o'qituvchilari ish faoliyatini ularni qo'llab-quvvatlash va moddiy yordam ko'rsatish kabi choralar ko'rilmoxda. Jamoatchilik orasida akademik vokal o'qituvchilari hurmatga sazovor bo'lib, ularning mehnati yuqori baholanmoqda. O'qituvchilar o'z ishini chin dildan bajarishlari uchun jamoatchilikning muhabbatini va hurmati katta ahamiyatga ega. Musiqiy ta'lif orqali ijtimoiy va ma'naviy o'zgarishlarga yordam berish. Musiqiy bilimli insonlar jamiyatda faol ishtirok etib, uning ma'naviy boyishini ta'minlaydilar. Akademik vokal o'qituvchilari o'zları ham ijobjiy namuna bo'lib, ularning faoliyati va shaxsiy xislatlari orqali yoshlarga ta'sir ko'rsatadilar va namuna bo'ladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Bo'lajak vokal o'qituvchilari faoliyati borasidagi adabiyotlar tahlili bu sohadagi tadqiqotlar va metodik qo'llanmalarning turli jihatlarini qamrab oladi. Quyida bu sohadagi asosiy adabiyotlar va ularning mazmuni haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan:

L.A.Barenboym o'zining Проблеми музыкальной педагогики и образования (Ushbu kitobda musiqiy ta'lifning nazariy asoslari va amaliyotda qo'llanilishi bo'yicha keng qamrovli ma'lumotlar keltirilgan. Asosiy e'tibor yosh mutaxassislarni tayyorlashdagi pedagogik yondashuvlarga qaratilgan. Bo'lajak vokal o'qituvchilari uchun nazariy va metodik asoslarini shakllantirishga yordam beradi[1].

L.V.Panchenko o'z "Вокальная педагогика" asarida vokal o'qituvchilarining o'qitish metodlari, ovoz texnikasi va nafas olish mashqlari haqidagi bilimlar keltirilgan[3]. Amaliyotda qo'llaniladigan mashqlar va metodlarni o'rganish uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

M.G.Solovyovaning "Основы вокальной" методики asari mazmunda vokal metodikasining asosiy prinsiplari va ularning turli vokal janrlarida qo'llanilishi, har xil vokal janrlarida faoliyat yuritish uchun o'qituvchilarga asosiy metodik ko'nikmalarni o'rgatishdan iboratdir.

S.G.Berezovskaya o'zining "Искусство вокала" Vokal san'ati va uning turli jihatlari, ovoz chiqarish texnikasi va qo'shiqlarni ijoq qilish usullari Vokal ijrochiligidini rivojlantirish va undagi turli uslublar bilan tanishishdir.

I.A.Krilovaning "Вокальное искусство и современные технологии" asari mazmuni vokal san'atida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi va ularning pedagogikadagi ahamiyati zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilimlar va ularning ta'lif jarayoniga integratsiyasini o'rganishdan iboratdir

E.V.Nazaykinskiyning "Музикальное воспитание и обучение в школе" Musiqa ta'limi va uning maktablardagi amaliy qo'llanilishi haqidagi tadqiqotlarininf axamiyati maktablarda vokal ta'limi samarali o'rganish va tatbiq etishga yordam beradi.

MUHOKAMA VA TADQIQOT NATIJALARI

Akademik vokal o'qituvchilari uchun adabiyotlar ko'p qirrali va keng qamrovli bo'lib, ularning nazariy va amaliy bilimlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak vokal o'qituvchilari

ushbu adabiyotlardan foydalanib, o'z pedagogik faoliyatlarini samarali va ilg'or usullar asosida amalga oshirishlari mumkin.

Shuningdek, akademik vokal o'qituvchisining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni bir necha muhim jihatlar orqali aniqlanadi:

- Akademik vokal o'qituvchilar milliy va jahon madaniy merosini saqlab qolish va uni kelgusi avlodlarga o'rgatish orqali muhim rol o'yнaydilar.

- O'qituvchilar turli janrlarda va uslublardagi musiqiy bilimlarni tarqatib, madaniy boyliklarning yanada ommalashishiga hissa qo'shadilar.

- Musiqiy ta'lif orqali o'quvchilarning zehni va his-tuyg'ularini rivojlantirish, ularda go'zallik va nafislikni his qilish qobiliyatini oshirish muhim xisoblanadi.

- Musiqiy ijod orqali o'quvchilarda mehnatsevarlik, sabr-toqat, mas'uliyat, jamoaviy ishlash va intizomlilikni shakllantirish.

- Vokal o'qituvchilar o'quvchilarning ijodi salohiyatini rivojlantirish, ularda musiqiy ijodkorlikni uyg'otish va qo'llab-quvvatlash orqali ijtimoiy jarayonlarni boyitadilar.

- Musiqiy ta'lif insonlarning ma'naviy olamini boyitish, ulardagi yorqin his-tuyg'ularni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

- Vokal ansambllari, xorlar va boshqa musiqiy jamoalarda qatnashish orqali o'quvchilarda jamoaviylik hissini shakllantirish va jamoaviy ishlash qobiliyatini oshirish.

- Milliy musiqiy asarlarni o'rganish va ijro qilish orqali o'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik hissini tarbiyalash.

- Yakka tartibli mutaxassislik faniga kirish mashg'ulotlari orqali talabalardagi stress va emotsional charchoqni kamaytirish, ularning psixologik salomatligini yaxshilash.

- Musiqiy ijod orqali o'quvchilarning his-tuyg'ularini ifoda qilish imkoniyatini yaratish va ularning emotsional barqarorligini ta'minlash.

- Vokal o'qituvchilar yordamida kelajakda professional musiqachilar, xonandalar va o'quvchilarni tayyorlash.

- Talabalarning ijrosini namoyish etish orqali jamoatchilikka musiqiy tadbirlar va konsertlar tashkil qilish.

Akademik vokal o'qituvchisi nafaqat musiqiy bilimlarni tarqatuvchi, balki jamiyatning umumiy rivojlanishiga, ma'naviy va madaniy boyishiga katta hissa qo'shuvchi shaxslardir. ularning faoliyati jamiyatning ma'naviy muhitini shakllantirish va uning bardaror rivojlanishiga yordam beradi.

Yangi davr akademik vokal sohasi pedagogidan mazkur soha mutaxassis sifatida uning ish samaradorligini oshirish, professional rivojlanishda yangi metodlarni, vokal texnikasi bo'yicha yangi yutuqlarni va pedagogik yondashuvlarni o'rganish uchun doimiy ravishda seminarlar, master-klasslar va kurslarda qatnashish kabi muntazam o'z bilimlari kapitalini to'ldirib boorish talab etiladi.

Har bir o'quvchi uchun alohida maqsadlarni belgilash va ularga erishish uchun bosqichma-bosqich reja tuzish. Bu o'quvchining rivojlanishini kuzatishga va shaxsiy yutuqlarini baholashga yordam beradi.

O'quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlari va qiyinchiliklarini tushunish, bu muammolarni hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning ota-onalari bilan muloqot qilish, ularni jarayonga jalb qilish ham muhim.

Darslarni qiziqrli va interaktiv qilish uchun turli o'yinlar, mashg'ulotlar, texnika va texnologiyalardan foydalanish. Bu talabalarning qiziqishini oshiradi va darslarga yanada jonlantiradi.

To'g'ri talaffuz va diksiyaga ko'proq e'tibor berish, bu vokal sifati uchun juda muhim. Buning uchun maxsus mashqlardan foydalanish

Texnologiyadan foydalanish, masalan, maxsus vokal o'quv dasturlari, mobil ilovalar va onlayni rejali o'quv platformalaridan foydalanish.

Komperativ uslubda baholash, har bir darsdan keyin o'quvchilarga fikr-mulohaza berish va ularni yaxshi ijro uchun maqtash. Shuningdek, o'z faoliyatini baholab borish, nima yaxshi ketmoqda va nima yaxshilanishi kerakligini tahlil qilish.

Har doim o'zining vokal texnikasini o'stirish, yangi qo'shiqlarni o'rganish va o'z ustida ishslash.

Bu choralar bo'lajak vokal o'qituvchisining ish samaradorligini oshirishga va ularning o'quvchilariga yuqori sifatli ta'lif berishga yordam beradi.

Akademik vokal ijrochisining ovoz imkoniyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi uslublar va mashqlar amalga oshirilishi mumkin:

PEDAGOGIKA

To'g'ri nafas olish texnikasi:

- Diafragmal nafas olishni o'rganish.
- Nafas olishni nazorat qilish va uzoq vaqt mobaynida ovoz chiqarish.
- Turli nafas olish mashqlari (masalan, "s" ovozini chiqarib nafas olish)

Vokal mashqlari:

- Gammalar va arpedjilarni kuylash.
- Talaffuz va diksiyani yaxshilash uchun turli ovozlar va so'zlarni mashq qilish.
- To'g'ri ovoz pozitsiyasini topish uchun falsetto va mikst ovozlardan foydalanish.

Rezonans va ovoz balandligini oshirish:

- Turli rezonans nuqtalarini faollashtirish (burun, ko'krak, bosh).
- Vibratoni mashq qilish va uni nazorat qilish.
- Baland va past ovozlarni mashq qilish.

Dinamika va ovozni nazorat qilish:

- Turli dinamik darajalarda (pianissimo, forte) kuylash.
- Ovozni bir maromda tutish uchun turli mashqlar (masalan, crescendo va dimenuendo).

Talaffuz va diksiya:

- Logopedik mashqlar (yalanglanglar, til pardalarini faollashtirish).
- Qisqa ovozlarni va so'zlarni aniq aytish uchun mashqlar.

Musiqiy ta'lim va nota o'qish:

- Nota savodini yaxshilash va musiqa nazariyasini o'rganish.
- Turli uslublarda va tillarda qo'shiqlarni o'rganish va ijro qilish.

Relaksatsiya va stressni boshqarish:

- Yoga va meditatsiya kabi mashqlar orqali bo'shashish va nafas olishni nazorat qilish.
- Psixologik tayyorgarlik va ijroga chiqish oldidagi stressni kamaytirish.
- Tanani umumiy fitnes holatini yaxshilash.
- To'g'ri turish va tana pozitsiyasini tutish uchun maxsus mashqlar.

Bu mashqlar va uslublar vokal ijrochisining ovozini rivojlantirish va uning ijrochilik malakasini oshirishga yordam beradi. Har bir mashqni muntazam ravishda va to'g'ri bajarish katta ahamiyatga ega.

Akademik vokal xonandasining sahma madaniyati yuqori professional darajada bo'lishi lozim. Bu ijro san'atining muhim qismidir va muxlislarga katta ta'sir ko'rsatadi. Quyidagi jihatlar sahma madaniyatini shakllantirishga yordam beradi:

– Konsert yoki tadbirning talablariga mos keladigan kiyimlarni tanlash. To'g'ri tanlangan kiyim xonandaning sahnadagi qiyofasini to'ldiradi va uning ijrosiga bog'liq ravishda ahamiyatga ega bo'ladi.

– Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish. Toza va yaxshi parvarishlangan ko'rinish saxnani mukammal ko'rsatadi.

– Saxnada turish uslubi to'g'ri va barqaror bo'lishi kerak. To'g'ri turish nafas olish va ovoz chiqarishga yordam beradi.

– Jismoniy harakatlar ham uzlusiz, ham tabiiy bo'lishi lozim. Ifodali harakatlar va ishoralar xonandaning ijrosini kuchaytirishi mumkin.

– Tomoshabinlar bilan ko'z bilan aloqa qilish ularning e'tiborini saqlashga yordam beradi.

– Tabassum va yuz ifodalari: Har xil yuz ifodalari va tabassum sahnadagi his-tuyg'ularni yetkazishda yordam beradi.

– Turli tillardagi va musiqiy davrlardagi asarlarni o'z ichiga olgan keng repertuar. Bu xonandaning imkoniyatlarini namoyish qilishga yordam beradi.

– To'g'ri talaffuz va diksiyani saqlash, har bir so'zni aniq aytish.

– Har doim vaqtida saxnaga chiqish va o'z vaqtida chiqish.

– Hamkasblar va tomoshabinlar bilan xushmuomalalikda bo'lish. Tengqurlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish.

– Sahnadagi stressni boshqarish uchun turli metodlardan foydalanish (masalan, yoga, meditatsiya).

– Har bir ijroda yaxshi niyat va his-tuyg'ularni o'qishga va muxlislarga yetkazish.

– Mikrofon va ovoz apparaturasi bilan ishlash: Agar mikrofon va boshqa texnikadan foydalanish zarur bo'lsa, ular bilan to'g'ri ishlashni o'rganish.

Bu jihatlar akademik vokal xonandasining sahna madaniyatini shakllantirish va uning ijrosini yanada yuqori darajaga ko'tarishga yordam beradi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak vokal o'qituvchilari jamiyatning madaniy va ma'naviy rivojlanishida, milliy merosni saqlash va uni kelgusi avlodlarga yetkazishda, yoshlarni estetik va etik tarbiyalashda alohida o'rinn tutadi. Ular jamiyatdagi ijtimoiy, madaniy va ma'naviy jarayonlarni boyitadigan, kelajak mutaxassislarini tayyorlaydigan muhim shaxslardir.

Bo'lajak vokal o'qituvchisining ish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

Bo'lajak vokal o'qituvchisi jamiyatda muhim va ko'p qirrali o'ringa ega. Ular nafaqat musiqiy bilimlarini tarqatuvchi, balki jamiyatning madaniy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashuvchi shaxslardir. Quyida bo'lajak vokal o'qituvchisining jamiyatdagi o'rni haqidagi xulosa keltirilgan:

- Bo'lajak vokal o'qituvchilari milliy va jahon musiqiy merosini o'quvchilarga yetkazib, ushbu an'analarni saqlab qolish va rivojlantirishga yordam beradilar.
- Ular turli madaniy tadbirlarda, konsertlarda va festivallarda ishtirok etib, madaniy boyliklarni ommalashtiradilar.
- Vokal ta'llimi orqali bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarda go'zallikni his qilish va uni qadrlash qobiliyatini oshiradilar.
- Vokal mashg'ulotlari davomida o'quvchilarda sabr-toqat, mehnatsevarlik va mas'uliyatni tarbiyalaydilar.
- Bo'lajak vokal o'qituvchilari o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'yinaydilar.
- Musiqiy ta'llim orqali o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitishga yordam beradilar.
- Xor va ansambllar orqali o'quvchilarda jamoaviylik hissini shakllantirishga hissa qo'shadilar.
- Milliy qo'shiqlar va musiqiy asarlarni o'rganish orqali o'quvchilarda milliy g'urur va vatandarlik hissini oshiradilar.
- Musiqa maktablari va konservatoriylarda bo'lajak professional musiqachilar va xonandalarni tayyorlaydilar.
- Shogirdlarni musiqiy konkurslar va tadbirlarga tayyorlash orqali ularning professional rivojlanishini ta'minlaydilar.
- Vokal mashg'ulotlari orqali o'quvchilarda stressni kamaytirishga va ularning psixologik salomatligini yaxshilashga yordam beradilar.
- Musiqiy ijod orqali o'quvchilarning his-tuyg'ularini ifoda qilishga imkoniyat yaratib, ularning emotsiunal barqarorligini ta'minlaydilar.
- O'z faoliyatları orqali jamoatchilikda hurmat va ishonch qozonib, ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shadilar.
- Talabalarda va jamoatchilikka ijobiy namuna bo'lib, ularning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баренбойм, Л.А., "Вокальная методика М.", (1983)"
2. Панченко, Л. В. Вокальная педагогика* М., (1990).
3. Соловьёва, М. Г. "Основы вокальной методики", М., :2000г.
4. Березовская, С. Г. "Искусство вокала П.", (2005).
5. Теплов, Б. М. Музыка и психология, : М., 1947
6. Петрушин, В.В. Психология музыкальных способностей* (2008).
7. Olontseva T.A. Formation of professional skills of students-choirmaster in the process of study at the university. Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta kul'tury i iskusstv [Bulletin of the Moscow State University of Culture and Arts]. 2014, no. 1 (57), pp. 216–220. (In Russian)
8. Nilov V.N. Khoreograficheskoe iskusstvo v formirovani sotsial'no-kul'turnogo prostranstva po mestu zhitel'stva [Choreographic Art in the formation of social and cultural space in the community]. Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta kul'tury i iskusstv [Bulletin of the Moscow State University of Culture and Arts]. 2013, no. 1 (51), pp. 129–137.
9. Лернер И.Я. Дидактические основы методов обучения. Москва : Педагогика, 1981. 186 с.
10. Казакова А.Г. Интерактивные методы обучения в системе послевузовского профессионального образования // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. 2013. № 2 (52). С. 184–190.

PEDAGOGIKA

11. Казакова А.Г. «Реформа» и «возрождение» современной высшей профессиональной школы // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. 2013. № 3 (53). С. 146–151.
12. Христидис Т. В. Психолого-педагогическое сопровождение студентов в вузе // Вестник Московского государственного университета культуры и искусств. 2015. № 1 (63). С. 172–176.
13. Kuznetsov N.I. *Stsenicheskoe masterstvo opernogo artista v kontekste akterskoi shkoly F. I. Shaliapina. Diss. dok. iskusstv. [Scenic skill of the opera singer in the context of actor's school F. I. Shalyapina. Dr. history of arts sci. diss.]*. Moscow, 2005. 380 p.
14. Паваротти Л. Я. Лучано Паваротти, или Восхождение к славе. Москва : Алгоритм, 2014. 287 с.
15. Zaikova M.S. Formirovanie tvorcheskikh navykov u studentov pri sozdaniyu stsenicheskogo obraza v vokal'nom proizvedenii [Formation of creative skills at students during creation of a scenic image in the vocal work]. *Vestnik Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta kul'tury i iskusstv [Bulletin of the Moscow State University of Culture and Arts]*. 2011, no. 6, pp. 159–163.
16. Кузнецов Н.И. Сценическое мастерство оперного артиста в контексте актёрской школы Ф. И. Шаляпина : дис. на соиск. учён. степ. доктора искусствоведения : 17.00.02 – музыкальное искусство / Кузнецов Николай Иванович ; Московская государственная консерватория имени П. И. Чайковского. Москва, 2005. 380 с.
17. Станиславский К.С. Собрание сочинений : в 8 томах / ред. коллегия: М. Н. Кедров (глав. ред.) [и др.] ; [подготовка текста и примеч. Н. Д. Волкова и В. Р. Канатчиковой] ; [вступ. статья Н. Волкова, с. V–XXVIII] ; Государственный научно исследовательский институт театра и музыки, Московский Художественный академический театр СССР имени М. Горького. Москва : Искусство, 1954–1961. Т. 4.
18. Станиславский К.С. Работа актёра над собой в творческом процессе переживаний. Дневник ученика. Часть II. Москва : Искусство, 1935. 142 с.